

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/05.06.2020.K/B.91.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZAYEVA NODIRA ABDUXAMIDOVNA

**O‘ZBEKISTONDA STEAM TA‘LIMNI PEDAGOGIK TA‘LIM
KLASTERI ASOSIDA O‘QITISHMETODIKASI
("ESHITDIM-KO‘RDIM-BAJARDIM" TAMOYILI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of doctoral (DSs) dissertation

Mirzayeva Nodira Abduxamidovna

О‘zbekistonda steam ta’limni pedagogik ta’lim klasteri asosida o‘qitish metodikasi ("eshitdim-ko‘rdim-bajardim" tamoyili misolida). 5

Мирзаева Нодира Абдухамидовна

Методика преподавания steam-образования в Узбекистане на базе педагогического образовательного кластера (на примере принципа "услышал- увидел-сделал") 34

Mirzayeva Nodira Abdukhamidovna

Methods of teaching Steam education in Uzbekistan on the basis of a pedagogical educational cluster (On the example of the principle of "heard-saw-done") 66

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 70

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/05.06.2020.K/B.91.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZAYEVA NODIRA ABDUXAMIDOVNA

**O‘ZBEKISTONDA STEAM TA’LIMNI PEDAGOGIK TA’LIM
KLASTERI ASOSIDA O‘QITISHMETODIKASI
("ESHITDIM-KO‘RDIM-BAJARDIM" TAMOYILI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

Fan doktori (DSs) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/Ped753 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Botirova Shaxlo Isamiddinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sabirova Gulnoza Sadikovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent.

Rahmanov Azizxon Bositxonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Dadayev Saidjon
biologiya fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.06.2020.k/b.91.03 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan Bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil “___” _____kuni soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mikrorayon. Tel.: (0367) 225-40-42; faks: (0367) 225-42-75; e-mail: glsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mikrorayon. Tel.: (0367) 225-40-42; faks: (0367) 225-42-75; e-mail: glsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “_” _____kuni tarqatildi.
(2025 yil “___” _____dagi _____-raqamlireestr bayonnomasi).

H.H.Qo‘shiyev
Ilmiy darajalar
beruvchi ilmiy kengash raisi,
b.f.d.(DSc), professor

T.A.Djurayev
Ilmiy darajalar
beruvchi ilmiy kengash kotibi, b.f.f.d.
(PhD), dosent

N.R.Xashimova
Ilmiy darajalar
beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar
raisi, b.f.d.,dosent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda «Ta'lim – barqaror rivojlanishni ta'minlovchi asosiy kuch sifatida» e'tirof etilib, BMT ning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi UNESCO tashkiloti tomonidan 2030 yilgacha «Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Zamonaviy yondashuvli ta'lim STEM va STEAM ta'limi shaklida Finlandiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, AQSh va Rossiya davlatlari ta'lim jarayonlarining asosi sifatida taraqqiy etdi. Dastlab STEM ta'limi Amerika Qo'shma Shtatlarida America COMPETES qonuni¹ orqali qo'llab-quvvatlandi va ushbu qonun STEM ta'limini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, STEM ta'limining besh yillik rivojlantirish strategik rejasi (2013-2018) ishlab chiqildi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari rahbarlari tomonidan ilm-fan sohasida ta'lim sifatini oshirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish hamda STEAM tafakkurni rivojlantirgan holda, hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon banki tomonidan o'tkazilgan so'rovnomaga asosan, davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, milliy va madaniy taraqqiyotini ta'minlash va bu maqsadlarga erishishda kasbiy kompetentlikni yuksak mahorat darajasigacha olib chiqish, tabiiy-ilmiy va fan-texnika, texnologiyalar sohalarida kadrlar etishmasligi ta'lim tizimi oldiga o'ziga xos talablarni qo'yimoqda. O'zbekistonda ham tabiiy - ilmiy dunyoqarash darajasini o'stirish va uni jahon standartlariga moslashtirish zamonaviy ta'limning eng etakchi maqsadi bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda ham xalqaro tajribalarga asoslangan STEAM texnologiyasini qo'llash, mahalliy ta'limning didaktik tizimini mazmunan boyitishga, uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishda zamonaviy va milliy-mahalliy ta'lim uslublarini takomillashtirishga qaratilgan harakatlar yetakchilik qilmoqda. SHunday ekan, talabalarga STEAM fanlar ta'limini biologiya o'qitish jarayonida amaliyotga joriy etish, nafaqat STEAM sohasi fanlari integratsiyasini ta'minlaydi, balki tabiiy bilimlarni transformatsion muhit va pedagogik ta'limni rivojlantiruvchi klasterning natijasi sifatida amalga oshiradi. Bu esa STEAM fanlar ta'limi orqali bo'lg'usi pedagog-biolog talabalarga kasbiy faoliyati davomida nazariy olingan bilimlardan foydalanishning innovatsion majmuaviy yondashuviga asoslangan mazmunini ochib berish hamda nazariy va amaliy materiallarning integratsiyalashgan mazmunini takomillashtirishni taqozo etadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2022 yil 11 maydagi "2022-2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmonlarida, 2020 yil 12 avgustdagi «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz

¹ <http://www.commerce.gov/Competes>.

ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4805-son Qarorida, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 27-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida STEM ta'limi tizimini joriy etish to'g'risida"gi 274-son buyrug'ida, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi².

Zamonaviy yangi STEAM yondashuvli ta'limni joriy qilish va uning dasturlarini takomillashtirish, aniq va tabiiy fanlar, muhandislik, san'at hamda matematika fanlari o'zaro integratsiyasi asosida innovatsion o'qitish uslublarini yaratish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari, xususan, Massachusetts Texnologiyalar Instituti (AQSh), Priston University (AQSh), University of Texas (AQSh), Eastern European Scientific Journal (Germaniya), Universität München (Germaniya), Oxford University (Buyuk Britaniya), London University (Buyuk Britaniya), Nagoya University (Yaponiya), National Institute Of Technical Teachers Training And Research (Hindiston), Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya), Massachusetts ixtissolashgan markazi (AQSh), Manchestr ixtissolashgan markazi (Buyuk britaniya), Nagoya universiteti huzuridagi ixtisoslashgan malaka oshirish markazi (Yaponiya), tadqiqotlar olib borilmoqda.

² Mazkur qism From Journal of Interactive Media in Education: <http://jime.open.ac.uk/article/view/2012-18/466> Delors, J. La educación encierra un tesoro. Madrid: Santillana. Downes, S. (2007). What connectivism is. Retrieved May 4, 2015 from Half and hour: <http://halfanhour.blogspot.com/2007/02/what-connectivism-is.html> Freire, P. (2022). Fano, S., Callejo, J., Brouns, F., Gutiérrez, A., Bossu, A., et al. (2022). D4.3 Report on users satisfaction. Luxembourg: European Commission. Gabelas, J., Marta-Lazo, C., & Aranda, D. (2012, March). Por qué las TRIC y no las TIC. Retrieved May 4, 2015 from COMeIN. Revista de los Estudios de Ciencias de la Información y de la Comunicación: <http://www.uoc.edu/Article-Dani-Aranda.html> Gabelas, J., Marta-Lazo, C., & Hergueta, E. (2022). Comunicación, Ubiquidad y Aprendizajes. IV Congreso Internacional Latina de Comunicación Social (pp. 1-23). Santa Cruz de Tenerife: Universidad de la Laguna. Gaebel, M. (2013). MOOCs. Massive Open Online Courses. Una pedagogía de la comunicación. Madrid: Ediciones de la Torre. Lane, A. (2022). A review of the role of national policy and institutional mission in European Distance Teaching Universities with respect to widening participation in higher education study through open educational resources. Distance Education, 33 (2), 135-150. kabi manbalarga asoslanob yozildi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi
URL: <http://ojs.lboro.ac.uk/ojs/index.php/DATE/article/view/2015/176> свободный 2015//Launching the 21st century American aerospace workforce. [Электронный ресурс]//Aerospace Industries Association of America (AIAA). Washington, DC:2008. URL:<http://www.raeng.org.uk/publications/other/launching-the-21stcentury-american-aerospace-work> свободный (дата обращения: 16.09.2015)//Winning the Race to Educate Our Children. Science, Technology, Engineering, and Mathematics (STEM) Education in the 2012 Budget (White House Office of Science and Technology Policy). [Электронный ресурс]. URL:<https://www.whitehouse.gov/sites/default/files/microsites/ostp/OSTP-fy12-STEM-fs.pdf> свободный 2015//ivanov: v rossiiskikh shkolakh nachnut prepodavat' robototekhniku. [Elektronnyi resurs]. Rossiiskoe agentstvo mezhdunarodnoi informatsii «RIA Novosti». 2014. URL: <http://ria.ru/society/20141121/1034450220.2015> va boshqa zamonaviy manbalar asosida amalga oshirilgan.

Dunyoning eng etakchi ta'lim muassasalari sanalgan Village School³, Brown University, Harvard University, Yale University, Cornell University (AQSh), John Cabot University (Italiya), University of St Andrews (Buyuk Britaniya)⁴, ETH Zurich (Shveysariya), National University of Singapore (NUS – Singapur), Peking University (Xitoy), UNSW Sydney - University of New South Wales, The University of Melbourne, The University of Sydney (Avstraliya)⁵ va boshqalar ta'lim taraqqiyotini STEM va STEAM fanlar integratsiyasi bilan asoslaydi.

Xorijiy davlatlarda STEAM yondashuvli ta'lim muammolarini hal qilish va STEAM ta'limi kontsepsiyalarini rivojlantirish (National Institute Of Technical Teachers Training And Research, Hindiston), oliy ta'limda STEAM yondashuvli ta'limga asoslangan tabiiy fanlar, texnologiya va dizayn ta'limi o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishda ijodkorlikni rivojlantirish shakllantirish jarayonini loyihalash (modellashtirish) metodlari tizimlashtirilgan va uning loyihaviy-konstruktiv mazmuni takomillashtirilgan (Princeton university, AQSH), o'qitishning zamonaviy texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni intellektual va psixoemotsional rivojlantirish tizimi yaratilgan (Universität München, Germaniya), STEAM fanlar ta'limini modellashtirish va raqamlashtirish orqali tabiiy-ilmiy fanlarni o'qitish metodikasi ishlab chiqilgan.

Jahonda STEAM ta'limini modellashtirish va raqamlashtirish orqali takomillashtirish va ularni tizimli o'rganish muammolarining yechimi xususida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: STEAM ta'lim dasturlarini joriy etish bilan bog'liq muammolarni hal qilish, STEAM fanlarini raqamlashtirish, STEAM fanlari asosida kasbiy-amaliy faoliyatga tayyorlash, kasbiy kompetentlikni takomillashtirish, uzluksiz ta'limni modellashtirish, tabiiy fanlarni o'qitishdagi empirik bilish metodlari, fundamental bilimlar va amaliy bilimlar kesishmalarini uyg'unlashtirish texnologiyalarni rivojlantirish ta'limning eng yetakchi maqsadlaridan bo'lmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonlik olimlardan biologiya o'qitishda ta'limning innovatsion texnologiyalari va fanlararo uzviylashtirish muammolari J.O.Tolipova, G.S.Ergasheva, A.K.Raximov, M.N.Ibodova, L.M.Qaraxonova, M.T.Umaralievlar tomonidan keng o'rganilgan; N.N.Narzieva, S.Nishonova, N.Ortiqov, M.M.Lutfullaev, S.C.Fayzullaev tadqiqotchilik ko'nikmalarini tadqiq etib ilmiy faoliyat olib borgan bo'lsalar, I.N. Kim, Z.M.Ashurova, Y.R. Maxmutazimovlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM texnologiyalardan foydalanish mavzusiga oid hamda M.X. Tashibayeva, G.O. Abduraimovlar esa STEAM texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llash; Sh.R.Turdiyev, M.F. Jumanazarova, O.A. To'ychiyev, Z.B. Sangirova, S.I.Suvonovlar ta'limning turli sohalarida STEAM texnologiyasini qo'llash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

MDH davlatlarida STEAM fanlar ta'limini amalga oshirish muammosi o'tgan o'n yil ichida ko'pchilik tadqiqotchilarni e'tiborini o'ziga jalb qilgan xususan,

³ <https://smapse.ru/top-50-luchshih-shkol-evropy-i-mira/>

⁴ <https://www.itecgroup.ru/programs/izuchenie-stem-za-rubezhom>

⁵ <https://www.hotcourses.ru/study/rankings/qs-world.htm>

rossiyalik olimlar V.N.Chemekov, D.A.Kрылов, S.A.Lovyagin va A.S.Obuxov STEAM fanlar integratsiyasi orqali amaliy topshiriqlarni bajarishga qaratilgan amaliyotlarni yaratishni boshladilar va Moskva davlat pedagogika universitetida fizika va STEAM ta'limi bo'yicha magistrlik dasturini ishga tushirdilar. STEAM ning tarkibi bo'lgan matematika va fizika fanlari ta'limi asosida muhandislikka tayyorlashni amalga oshirish muammosi esa A.N.Kolmogorov, L.D.Kudryavsev, B.V.Gnedenko, S.M.Nikolskiy, T.M.Alieva, Y.V.Bulicheva, N.N.Lemeshko va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida qarab chiqilgan. STEAM ta'lim dasturlarini joriy etish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda A.O.Repin, D.A.Krilov, D.V.Livanov va boshqa olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Biroq ularning ilmiy tadqiqot ishlarida STEAM fanlari ta'limini modellashtirish va raqamlashtirish muammosi o'rganilmagan.

Xorijiy davlatlarda STEAM yondashuvli ta'lim muammolarini hal qilish va STEAM ta'limi konsepsiyalarini o'rganish bo'yicha F.Banks, D.Barlex, J.Radloff, S.Guzey, J.Pit, C.Brady, R.Lesh, S.Sevis, T.Davies va J.Gilbertlar tadqiqot ishlarini olib borgan.

Yuqoridagi ilmiy ishlar tahlili tabiiy biologik fanlarni o'qitish jarayonini integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalar, talabalar tomonidan ijodkorlik va bo'lajak pedagog-biologlarda STEAM kompetensiyalar asosida tashkil etish muammosiga bag'ishlangan maxsus, keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Bu O'zbekistonda STEAM texnologiyalarini o'qitishda ta'lim va tarbiyani jahon standartlariga mos ravishda olib borish, "Biologiya o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalari"ni qo'llash zaruratni ko'rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasi doirasida AIF 1/2 raqamli "Oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishda klasterli yondashuv: Guliston davlat universiteti va ishlab chiqarish integratsiyasi tizimida "O'quv-ilmiy kompleks" tashkil etish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekistonda STEAM ta'limini "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyiliga binoan modellashtirish hamda innovatsion ta'lim klasteri asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak biologiya o'qituvchilarining ilmiy metodik tayyorgarligini ta'lim klasterining "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili va benchmarking strategiyasiga binoan tadqiq etish va STEAM dasturini mahalliyashtirish asosida tabiiy ilmiy savodxonlikni rivojlantirish;

individual yondashuv asosida STEAM ta'limini "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyiliga binoan o'qitish metodikasini takomillashtirish, hamda E.Deyl piramidasi va D.Kolb taksonomiyasiga binoan pedagogik-psixologik tahlil o'tkazish;

shaxs psixotiplarini aniqlash asosida STEAM fanlarini o'qitishda fanlararo mavzular integratsiyasini tashkil etish hamda bo'lajak biologiya o'qituvchilarining STEAM kompetentligini rivojlantirish, tadqiqotchilik va ijodkorlik ko'nikmalarini takomillashtirish;

ixtisoslashtirilgan Prezident ta'lim muassasalari va Kembridj tabiiy fanlarni o'qitish dasturi metodikasi negizida O'zbekistonda STEAM ta'limini o'qitishni adaptivlashtirish va va fanlararo integratsiyasini ta'minlovchi transformatsion o'quv dasturlari ishlab chiqish;

pedagogik ta'lim klasteri tamoyili bo'yicha bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy STEAM kompetentligi komponentlarini aniqlashtirish mezonini ishlab chiqish va STEAM soha mutahasisi obrazini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida biologiya o'qitishda STEAM ta'limini pedagogik ta'lim klasterining "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili asosida o'qitish, bo'lajak biolog-pedagog talabalarni STEAM kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni belgilangan bo'lib, unda Urganch davlat universiteti (UDU), Guliston davlat pedagogika instituti (GDPU), Termiz davlat universiteti (TerDU) hamda Toshkent davlat pedagogika universitetidan (TGPU) **648** nafar respondent talaba ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti biologiya o'qitishda STEAM ta'limini pedagogik ta'lim klasterining "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili asosida o'qitishda talabalarni STEAM sohasi pedagogi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni, shakllari, metod va vositalari belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir pedagogik-psixologik tashxislash va kuzatuv, pedagogik jarayonni modellashtirish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, qiyosiy va tizimli tahlil, so'rovnomalar, test, suhbat, tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak biologiya o'qituvchilarining ilmiy metodik tayyorgarligi pedagogik ta'lim innovatsion klasterining "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili va benchmarking strategiyasiga binoan STEAM dasturini maxalliylashtirish, tabiiy ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning SMART yechimini ishlab chiqilgan;

STEAM sohasi bo'lajak mutaxassislarining kognitiv faoliyati "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili va E.Deyl piramidasi asosida takomillashtirilgan hamda D.Kolb taksonomiyasiga binoan talabalar STEAM tafakkuri rivojlantirilgan;

bo'lajak biologiya o'qituvchilarining STEAM (tanqidiy tafakkur, muammolarning yaxlit yechimi, ijodkorlik, muloqotchanlik, hamkorlikda ishlash, ma'lumotlardan foydalanish savodxonligi) kompetentligini rivojlantirish asosida tadqiqotchilik va ijodkorlik ko'nikmalari o'zaro parallel integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

O'zbekistonda STEAM ta'limini Kembridj dasturi va klaster yondashuvi asosida rivojlantirilgan va fanlararo integratsiyasini ta'minlovchi transformatsion o'quv dasturlari ishlab chiqilgan;

pedagogik ta'lim klasteri tamoyili bo'yicha bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy STEAM kompetentligi (integrator, kreator va STEAM lider ko'rinishida) rivojlantirilgan va kognitiv, integrativ, kreativ mezon va STEAM tafakkur (tanqidiy tafakkur, muammolarning yaxlit yechimi, ijodkorlik, muloqotchanlik, hamkorlikda ishlash, ma'lumotlardan foydalanish savodxonligi)

asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Bakalavriat ta'lim bosqichi uchun «Boshlang'ich ta'limda Steam» nomli darslik hamda «ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ» o'quv qo'llanmasi yaratilgan;

60110100 – Pedagogika va psixologiya, 60110900 – biologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun «Kognitiv biologiya» nomli darslik yaratilib, STEAM ta'limining tabiiy fanlar bo'yicha fundamental bilimlari ta'lim jarayoniga joriy etilgan;

“Tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik ta'lim innovatsion klasterining nazariyasi va amaliyoti” nomli monografiya tayyorlangan bo'lib, STEAM ta'limini o'qitishda D.Kolb taksonomiyasiga binoan STEAM fanlari tarkibiga kiruvchi tabiiy fanlarni o'qitish uslubiyoti keng yoritib berilgan;

STEAM ta'limining ekologik kontekstdagi mavzularni o'rganishga oid “Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti” nomli monografiya yaratildi, natijada talabalarning STEAM sohasi tabiiy-ekologik savodxonlik darajasini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik ishlanmalar bilan boyitildi;

Biologiya o'qitishda STEAM ta'lim mashg'ulotlarda individual va transformatsion ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etishga oid nazariy va amaliy metodik ishlanmalari kiritilgan «O'zbekistonda steam ta'limni pedagogik ta'lim klasteri asosida o'qitish metodikasi ("eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili misolida)» nomli monografiya tayyorlandi va amaliyotda qo'llanildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. O'zbekistonda STEAM ta'limini pedagogik ta'lim klasterining “Eshitdim-ko'rdim-bajardim” tamoyiliga binoan loyihalangan individual ta'lim texnologiyalarini qo'llashda foydalanilgan ma'lumotlar, xulosa va natijalarda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, dissertatsiya natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda va boshqa xorijiy ilmiy jurnallarda chop qilingani, yaratilgan darslik, o'quv qo'llanma va elektron-dasturiy mahsulotlar asosida mashg'ulotlarni olib borish metodikasi yuzasidan berilgan xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilinganligi, keltirilgan tahlillar asoslanganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, taklif qilingan amaliy uslublar STEAM fanlari bo'yicha mutaxassis, biolog-pedagoglarning intellektual rivojiga, ta'limda individual ta'lim texnologiyalarni joriy etish, ta'limda individual-tranformatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston oliy ta'lim tizimida STEAM sohasi bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalarning yaratilganligi hamda bo'lajak mutaxassislarning nazariy, ilmiy hamda kasbiy tayyorgarligini

rivojlantirishga xizmat qilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda STEAM ta’limini pedagogik ta’lim klasteri asosida o‘qitish (Eshitdim-ko‘rdim-bajardim tamoyili) yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida: Bakalavriat ta’lim bosqichi uchun «Kognitiv biologiya» nomli darslik hamda «ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ» o‘quv qo‘llanmasi yaratilgan (A- 1-074 - "Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida tarbiya jarayonini loyihalash orqali yosh avlodni milliy, umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash" mavzusidagi amaliy loyiha rahbarining ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak biolog-pedagoglarning ilmiy metodik tayergarligi pedagogik ta’lim innovatsion klasterining “Eshitdim-ko‘rdim-bajardim” tamoyili va benchmarking strategiyasiga binoan rivojlantirilgan, hamda STEAM dasturini mahalliyashtirish asosida tabiiy ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning smart echimi ishlab chiqilgan;

60110100 – Pedagogika va psixologiya, 60110900 – biologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun «Kognitiv biologiya» nomli darslik yaratilib, STEAM ta’lim jarayoniga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktab va maktabgacha ta’limi vazirligining 24-aprel 2024-yil sanasidagi, 11-05-1820/04 - sonli ma’lumotnomasi). Natijada steam soxasi bo‘lajak mutaxassislarining kognitiv faoliyati “Eshitdim-ko‘rdim-bajardim” tamoyili va E.Deyl piramidasi asosida takomillashtirilgan hamda D.Kolb taksonomiyasi asosida talabalarning STEAM tafakkuri rivojlantirilgan.

Steam sohasi bo‘lajak mutaxassislarining kognitiv faoliyati “Eshitdim-ko‘rdim- bajardim” tamoyili va E.Deyl piramidasi asosida takomillashtirilgan hamda D.Kolb taksonomiyasiga binoan talabalarning STEAM tafakkuri rivojlantirishga doir xulosalar amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktab va maktabgacha ta’limi vazirligining 24-aprel 2024-yil sanasidagi, 11-05-1820/04 - sonli ma’lumotnomasi). Natijada “Tabiiy fanlarni o‘qitishda pedagogik ta’lim innovatsion klasterining nazariyasi va amaliyoti” nomli monografiya tayyorlangan bo‘lib, D.Kolb taksonomiyasiga binoan o‘qitish uslubiyoti STEAM fanlari tarkibiga kiruvchi tabiiy fanlarni keng yoritib berilgan;

Prezident ixtisoslashgan ta’lim muassasalari va Kembridj tabiiy fanlarni o‘qitish dasturi metodikasi negizida O‘zbekistonda STEAM ta’limini o‘qitishni adaptivlashtirish va va fanlararo integratsiyasini ta’minlovchi transformatsion o‘quv dasturlari ishlab chiqishga oid konsepsiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son 2019 yil 29 aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorining 2-bob v) band 3-bob 7-8 bandlarining i) va m) qismini, 4-bob 9-bandini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-134-son 2022 yil 11 may sanasida qabul qilingan “2022-2026 yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” farmonining 7 bob b) bandini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlis senatining mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi 37- sonli dalolatnomasi). Natijada, STEAM ta’limini o‘qitishni adaptivlashtirish va va fanlararo integratsiyasini ta’minlovchi transformatsion o‘quv dastur ishlab

chiqilgan.

STEAM ta'lim mashg'ulotlarda individual va transformatsion ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etishga oid nazariy va amaliy metodik ishlanmalaridan "AIF 1/4-"Kasb-hunarga yo'naltirilgan markaz va elektronika bo'yicha qo'shma o'quv laboratoriya yaratish" (2019-2021 yy.) mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyahasini bajarishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi maktab va maktabgacha ta'limi vazirligining 24-aprel 2024-yil sanasidagi, 11-05-1820/04 - sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak boshlang'ich ta'lim bakalavriyat talabalari uchun "Boshlang'ich ta'limda STEAM" nomli darslik tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 38 ta ilmiy, ilmiy-uslubiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, 2 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan 9 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, 263 sahifa, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

"Kirish" qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha respublika, MDH mamlakatlari hamda xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti, usullari belgilangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. SHuningdek, tadqiqot ishining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning «**STEAM ta'lim asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'limda «Biologiya o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalari»dan foydalanish imkoniyatlari, Dunyo ta'lim tizimi STEAM konsepsiyasida biologiya fanlarini o'qitishning amaliy va nazariy asosi talqin etilgan bo'lib, STEAM texnologiyalardan foydalanib biologiyani o'qitishda talabalarning kasbiy: pedagogik, ilmiy tadqiqot, ishlab chiqarish va integrativ faoliyatlarga tayyorgarligini rivojlantirishning mazmuni, texnologik tuzilmasi, jarayonning uzviyligining nazariy-metodologik jihatlari tadqiq etildi. Mazkur bobda O'zbekiston zamonaviy maktablarning rivoji va raqobatbardosh pedagog-biologlarni tayyorlashda STEAM yondashuvni rivojlantirishning pedagogik-psixologik muammolari, STEAM mutaxassis egallashi lozim bo'lgan tayyorgarlik darajalari, tayanch STEAM

kompetensiyalar va yordamchi STEAM kompetensiyalar tahlili keng olib borilgan.


Mazkur bobda STEAM sohasi bilan bog‘liq pedagogik vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga kognitiv ta‘sir etuvchi reflektiv, texnologik ko‘nikmalar, shuningdek hamkorlik va muloqot kompetensiyalari kiritiladi.

Zamonaviy ta‘lim tizimining asosini olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, kreativ ijodkorlik kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish tashkil etadi. Bu borada tabiiy fanlar va uni o‘qitish metodologiyasini STEAM ta‘limiga mos o‘qitish o‘quvchilarni biologiya fanlarini o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib mavzuga oid topshiriqlar va vazifalarni o‘zlashtirish, kelajakda tabiiy fanlarning dunyo standartlari darajasida baholanishiga olib keladi.

Dunyodagi bunday global texnologiyalar va tabiiy-ilmiy savodxonlikning integratsiyalashgan ko‘rinishi STEAM ta‘limi misolida o‘qitish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Avvalo dunyoning rivojlangan davlatlarida tabiiy fanlarni o‘qitish tizimini tahlil qilish va o‘rganishlar shundan dalolat beradiki, STEAM ta‘lim bir necha fanlar tutash kelgan va ular yordamida o‘quvchilarda ijodkorlik, raqobatbardoshlik, mantiqiy tafakkur hamda amaliy kompetensiyalar yuqori darajada rivojlanishi, differensial tabaqalashtirilgan ta‘limning yuksak rivoji sifatida aks etadi. STEAM yondashuvi ta‘lim oluvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon yaratib, ijodiy fikrlash asosida muammolarni yechimini topish, tabiiy-ilmiy metodlarni bilish, egallangan bilimlardan san‘at, muhandislik va texnologik bilimlarni rivojlantirish asosida tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan ta‘lim sanaladi.

A.Toffler o‘zining "Kelajakdagi zarba" - (Future Shock) kitobida: "XXI asrda o‘qish va yozishni bilmagan inson savodsiz deyilmaydi, balki o‘qimaydigan, o‘qishni xohlamaydigan va qayta o‘rganishni istamaydigan inson - savodsiz sanaladi. Ijodkorlik, qiziquvchanlik va dizayn tafakkur kelajak mutaxassislari uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi " deya ta‘kidlaydi.

A.Harris va L.R. de Bruin STEAM ta‘limi pedagog va o‘quvchilarning o‘quv faoliyati bilan bog‘liq deb, STEAM ta‘lim faoliyati tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berishini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlarni keltirmoqdalar. Davlatlarda yuz berayotgan iqtisodiy inqirozning oldini olishda ilm-fan, texnologiyalar va fanlararo integratsiyani ta‘minlash asosida vujudga keladigan "Ijod makonlari"ni yaratish, fanlararo samarali va ustuvor loyiha ishlarini yaratishda maktab o‘quvchilari, talabalar va ilmiy tadqiqotchilarning klaster yondashuviga binoan harakatlarini ta‘minlash xorijiy davlatlarda keng yo‘lga qo‘yilgan. Misol tariqasida bunday o‘z hududidagi turli sohalardagi bilim va tajribani integratsiyalaydigan va platformalar ilmiy, ta‘lim, biznes va sanoat muhitini yarata oladigan "Ijod makonlari" Finlyandiyada Aalto University-Design Factory "FabLab" misolida taraqqiy etib kelmoqda.



1-rasm. Biolog talabalarni kasbiy STEAM faoliyatga tayyorgarlik darajalari.

Singapur kabi Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotni rivojlantirishda ijodkorlik va tadqiqotchilikni yetakchi omilga aylantirgani sabab katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. 2002 yilda Singapurni dunyo ta'lim tizimida global ijodkorlik, innovatsiya va dizayn markaziga aylantirishga qaratilgan Remaking Singapur tashabbusi boshlandi.

O'zbekistonda ham "STEAM-ta'limi"ga asoslangan Prezident maktablari o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, asosan o'quvchilarning yetakchilik ko'nikmalarini shakllantirishga, ulardagi mantiqiy tafakkur va notiqlik san'atini rivojlantirishga, jamiyatda yetuk shaxs sifatida ijtimoiy faollikni oshirishga hamda ta'limda egallanayotgan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim tizimi ekanligi bilan rivojlanib bormoqda.

Dissertatsiyaning «**Pedagogik ta'lim innovatsion klasterida tabiiy fanlarni o'qitishning "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyilining metodologik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida pedagogik ta'limning innovatsion klasteri negizida tabiiy fanlarni o'qitish tamoyili keng tahlil qilingan. Yuksak rivojlangan ijtimoiy hayotni zamonaviy muhit bilan hamnafas ravishda tarbiya qilish, yosh avlodga soha bilimlarni o'rgatishda bir necha yondashuvlar, ta'lim taksonomiyalari va ta'lim tizimini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan innovatsion klasterlardan foydalanish samarali vositalardan sanaladi. Zamonaviy dunyo ta'lim tizimi pedagog kadrlarning nafaqat bilim, ko'nikma, va malakalarini rivojlantirishni talab qiladi, balki o'quvchi yoshlarni zamon bilan hamnafas fikrlay oladigan, ekologik, siyosiy va texnik rivojlanishlar davriga mos kelajak avlod qilib tarbiyalashini, ta'lim va tarbiya metodlarini zamon bilan bir me'yorda olib bora oladigan mutaxassis bo'lib yetishishini talab etadi. Bu borada ta'lim tizimida mavjud islohatlar va innovatsiyalar yetakchi pedagoglar tomonidan shakllantirilgan va ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan ta'lim taksonomiyalari asosida amalga oshiriladi.

Biologiya o'qitishda o'quv jarayoniga "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyiliga binoan STEAM ta'limni joriy etishning o'ziga xos hususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar misolida namoyon bo'ladi:

1. Integratsion fanlar doirasi va o'quv jarayonida fanlararo aloqadorlik hodisasining murakkab va serqirra didaktik jarayon ekanligi aniqlanadi.

2. STEAM-integratsiya ta'lim jarayoni va uning barcha o'qitilish shaklida didaktik shart-sharoitlarni takomillashtiruvchi didaktik hodisa sifatida turli fanlar blokiga mansub fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlay oladi.

3. O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlashda mavzularni STEAM ta'limiga mazmunan moslab, o'quv fanlarining materiallarini "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyiliga muvofiq talabchanlik bilan moslashtiriladi.

4. O'rganilayotgan materialning ilmiy va amaliy darajasini oshirishda mavzuning "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" bosqichlari uchun modullarga ajratilishiga harakat qilinadi.

5. STEAM ta'limida o'zaro aloqador bo'lgan mavzular va bilimlar didaktik birlik sifatida yaxlitlanadi va umumlashtiriladi;

6. O'quvchilar ongiga bilimlarni yetkazishda, tahsil oluvchilar stereotipini aniqlash va ularni bilimlarni qabul qilish darajasiga binoan barqaror va

tizimlashtirilgan bilimlarni singdirish yo'llari ko'rsatiladi.

Uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish Chirchiq modeli pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyati bilan bog'liq zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta'lim, fan va ishlab chiqarish bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro yakdillikning yetishmasligi bilan bog'liq kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida taklif etilgan.

Jahon ta'lim tizimi bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlashda keng foydalanayotgan xalqaro baholash (PIRLS, PISA, TIMSS, TALIS) dasturlari ta'lim sohasida pedagog, o'quvchi va talabalarning o'zlashtirgan bilimlari darajasini aniqlashda dunyoviy ta'lim mezoni bo'lib qolmoqda. Bunda esa XXI asr ko'nikmasi sifatida tayyor bilimlarni takror ravishda qaytadan yodlash emas, balki, mavjud hosil qilingan bilimlar asosida yangi bilimlarni shakllantirish, shaxsning o'zini rivojlantirishiga ko'mak beruvchi ko'nikmalarga urg'u berib dars metodologiyasini qayta tartiblash muhim sanalmoqda.

Demak, STEAM ta'limni amalga oshirishda eng samarali va xalqaro bilimlarni baholash dasturlari rivojiga mos keladigan D.Kolb va B.Blum taksonomiyasining integratsiyasi asosida o'quvchi va talabalarning tabiiy-ilmiy bilish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan STEAM texnologiyalaridan foydalanish zarur ekanligini aniqlandi.

1- jadval.

D.Kolb taksonomiyasi asosida kognitiv bosqichlarni amalga oshirishi

Bosqich nomi	Mohiyati	Natija
<i>Hosil qilingan tajriba</i>	O'quvchi o'rganayotgan hpodisani amaliyotda yetarlicha ko'nikmaga ega bo'lmasa bajarishga urinib ko'radi	Kelajakda bilim olish zaruratini anglash yoki shu bilimlarning ham yetarli ekanligi haqida tushuncha hosil qilish
<i>Refleksiyai</i>	Hosil qilingan tajribaning musbat va manfiy tomonlarini tahlil qilish	Jarayonlarning o'zgarishiga tayyor turish va to'g'ri faoliyat yuritish
<i>Nazariya</i>	Hosil qilingan tajribadan tahlil va xulosa chiqarish orqali nazariy bilimlarga ega bo'lish	Kelajak uchun to'g'ri faoliyat yuritish algoritmi hosil qilanadi
<i>Amaliyotda mustahkamlash</i>	Bilimlarning ko'nikma va malakaga aylanishi, pedagog tomonidan tahrirlanadi	Kerakli ko'nikmalar qisman va butunlay bajarib ko'rildi ham mustahkamlandi.

Quyida biologiya o'qitishda "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyilining metodik tizimi berilgan bo'lib, bu tizimning ishlash mexanizmi E. Deylning ta'limni

o'zlashtirish piramidasiga binoan shakllantiriladi. Aynan ta'lim metodlaridan eng yuqori samara beradigan bo'g'ini bo'lib, mustaqil ta'lim va o'zgalarni o'qitish asosida amalga oshiriladi.

"Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili asosida tashkil etiladigan STEAM ta'limi, nafaqat fanlar integratsiyasini talab etadi, balki faoliyatni amalga oshirishda ketma-ket bajariladigan algoritmik bosqichlar ta'minlanishi zaruriyatini asoslaydi. "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyiliga binoan mashg'ulotlar quyidagi ta'lim metodlari asosida olib boriladi va 1 - bosqichda talabalar o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimning 40-50% ni o'zlashtirilgani, 2 - bosqichda esa talabalar tomonidan 60-70% bilimlarning o'zlashtirilgani aniqlansa, bu bosqichdagi laboratoriya mashg'ulotlari talabalar tomonidan videodars, hamda videotaqdimot yoki qisqa metrajli o'quv film ko'rinishida tayyorlanadi. Oxirgi 3 - bosqichda ta'lim samaradorlik ko'rsatkichi 80- 100 % ga etishi aniqlandi.

Tamoyilining maqsad va vazifalarini belgilab olish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Tamoyil uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. O'qituvchi ma'ruza asosida ma'lumot beradi.
2. Laboratoriya mashg'uloti videodars qo'yib ko'rsatiladi.
3. Ushbu laboratoriya ishi talabalar tomonidan mustaqil bajariladi va oldindan ko'zlangan maqsadlarga erishilganlik samarasi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi;

Ta'limdagi bu tamoyil "Ma'ruza + amaliy mashg'ulot + laboratoriya + mustaqil ta'lim" ning to'liq ishlashiga yordam beradi.

Kredit modul tizimida asosiy e'tibor mustaqil ta'limga qaratilgan ekan, bu borada "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyiliga binoan talabalar mustaqil ishlarining bajarilishiga va fanlar bo'yicha xususiy kompetensiyalarning shakllanishiga asos bo'ladi.

Ta'lim tizimida klaster yondashuvning dunyo hamjamiyatida bir necha modellari mavjud bo'lib, aynan STEAM kabi yondashuv uchun eng maqbul model, bu "Chirchiq modeli" bo'lib, biologik fanlarni o'qitishda eng samarali bo'lgan tamoyili bilan farqlanadi.

O'quv va ilmiy tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra STEAM ta'limining asosiy xususiyati shundaki, bunda o'quvchilar fanlarni samarali o'rganishda o'z aqli va qo'l mehnatidan foydalanadilar.

Biologiya o'qitishda STEAM texnologiyalari tanlov fani uchun talabalarga auditoriya va mustaqil ta'lim uchun mavzular taqsim etib beriladi. Mazkur mavzularni yoritishda, klaster tamoyiliga muvofiq xarakterlanish chizmasi taqdim etiladi. Talabalarga dastlab biologiya o'qitish metodikasi o'qituvchisi mavzuni ma'ruza ko'rinishida, taqdimotlar yordamida yoritib beradi. Bu bosqich pedagogik-innovatsion loyihaning "eshitdim" rukniga mos bo'lib, fan yuzasidan talabalar tomonidan nazariy bilimlar egallanadi.

Keyingi bosqich talabalarga berilgan nazariy bilimlarni "ko'rdim" bosqichida, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlari tariqasida taqdim etishdan iborat bo'ladi. Bu bosqichda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlari videodars hamda videotaqdimot ko'rinishida yoki qisqa metrajli o'quv filmi ko'rinishida HEMIS masofaviy ta'lim

platformasiga yuklanadi va jonli auditoriya mashg'uloti sifatida amalda qo'llaniladi. "Ko'rdim" bosqichining talabalar tomonidan mukammal darajada o'zlashtirilganligi "qisman izlanishli" ko'rinishdagi test nazorat savollari orqali amalga oshadi.

2-jadval.

STEAM sohasi fanlarini o'qitish natijasida shakllanadigan savodxonlik turlari

STEAM ta'limda egallanadigan savodxonliklar	Mazmun va mohiyati	Biologik tushunchalarni shakllantirishning an'anaviy metodlari va innovatsion pedagogik texnologiyalari
Tabiiy-ilmiy	O'quvchilar kundalik hayotda duch keladigan tabiiy-ilmiy jarayon, voqea-hodisalarni tahlil qilish, anglash va tushunishga yordam beradi	Kuzatish, tadqiq etish, eksperiment, reflektiv texnologiyalar, "SWOT tahlil, "Tabiat va men"; o'yin, muammoli va interfaol texnologiyalar
Texnologik	Egallangan tabiiy-ilmiy savodxonlikni empirik tajribalarda qo'llab ko'rishga imkon beradi.	Analiz, sintez, taqqoslash, mashq, amaliy ishlar, konstruktiv usullar (o'lchash, yasash, yelimlash, qirqish)
Konstruktiv	Tirik organizmlardagi organ va organoidlar tuzilmasi asosida texnologik qurilmalarning amaliy asosi shakllantiriladi. Amaliy tajribalar (tadqiqotlar) qilish orqali tirik organizmlarning ichki tuzilmasi o'rganadi. Muhandislik ko'nikmalari shakllantiriladi.	Loyihalash, modellashtirish, modulli va loyihaviy ta'lim texnologiyalari, kollaborativ hamkorlikda ishlash texnologiyasi
Badiiy-estetik	Badiiy did va estetik nazokat rivojida tirik organizmlar va tabiat omillari asosiy rol o'ynaydi, tabiiy fanlarni san'at bilan bog'lash dizayn tafakkurning rivojiga yordam beradi.	Art texnologiya, origami metod, badiiy loyihalash metodi, esse va badiiy ijodkorlik metodlari, dizayn va pinterest metodlari
Matematik	Aniqlik, mantiqiy fikrlash hamda algoritmlarga rioya qilish qobiliyatini va matematik savodxonlik rivojlanadi.	Tangram, Toporama, "Farqlarni aniqla", matematik diktant, boshqotirma, rebuslar, matematik topshiriqlar, interfaol, keys va interaktiv o'yinlar, solishtirish, analiz, sintez, taqqoslash

Pedagogik-innovatsion loyihaning yakuniy asosiy bosqichi "bajardim" deb nomlanadi. Bu bosqichda talabalar asosiy o'rgatuvchi bosqichlardan o'tib bo'lishgan bo'ladi. "Bajardim" rukni ostida talabalar nazariy va amaliy bilimlarni mustaqil ish vazifalari orqali mustahkamlaydilar. Mustaqil ta'lim vazifalari masofaviy ta'lim platformasiga joylangan. Bu bosqichning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, talabalar berilgan ko'rsatma asosida, mustaqil ravishda ta'lim vazifalarini bajaradilar. Aynan mana shu bosqichda, talabalar tomonidan

“eshitilgan”, “ko‘rilgan” bilimlar talabalar tomonidan “bajariladi”.

Bu bosqich topshiriqlari qisqa muddatli va uzoq muddatli topshiriqlar bo‘lishi mumkin. Ta‘lim jarayonida olib borilgan laboratoriya mashg‘uloti talabalarning ham ta‘lim - tarbiyaviy, ham axborot – kommunikativ kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. “Bajardim” rukni mustaqil ta‘lim topshiriqlaridan iborat bo‘ladi. Tajriba yakunida talabalar mustaqil ish natijalari asosida loyihani elektron tarzda (WORD, PPT formatda) ta‘lim platformasiga joylashtiradi. Olib borilgan tajriba ishlari esa tasvirga olinadi va maxsus dasturlar asosida videolaboratoriya ko‘rinishiga (MR4 formatda) keltiriladi. Videolaboratoriya ishi kichik hajmga keltirilib, ta‘lim platformasiga joylashtiriladi. “Bajardim” rukni talabalar tomonidan yakunlanganidan keyin, talabalarning o‘zlashtirgan bilimlari yakunlovchi kreativ darajadagi nostandart test savollari nazorati asosida tahlil qilinadi.

STEAM-ta‘lim fizik-matematik, informatik, biologik, astronomik, ximiya, geografiya va geologiya fanlarining umumlashmasi sanaladi.


3-jadval.

Talabalarning mavzularni yoritishda “Eshitdim-ko‘rdim-bajardim” tamoyili

ESHITDIM	KO‘RDIM	BAJARDIM
Ma‘ruza darslarida	Amaliy va laboratoriya darslarida	Mustaqil ta‘limda
Audiodarslar, taqdimotlar, elektron va bosma kitob, o‘quv adabiyotlar shaklidagi mashg‘ulotlar	Jonli yoki MP4 formatdagi video darslar, mavzu keng yoritilgan foydali saytlar va lavhalar shaklidagi mashg‘ulotlar	Mustaqil ta‘limni bajarilishining jonli videotasviri, hamda ushbu tasvirga olingan videomaterialni internetga joylash asosida, ssilkasi va QR kodi qo‘yilgan referatlar, mustaqil ta‘lim ishlari, taqdimnomalar va elektron infografika, mental xaritalar shaklidagi vazifalar.

Dissertatsiyaning «**Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda STEAM ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish metodologiyasi**» deb nomlangan uchinchi bobida STEAM yondashuv asosida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy ijodkorligini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari, STEAM integratsion kompetensiyalarning rivojlanishining tadrijiy bosqichlari, biologiya o‘qitishda STEAM ijodkorlik qobiliyatlarini loyihalash texnologiyalari asosida shakllantirish metodikasi tadqiq etilgan. STEAM yondashuv asosida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy kreativligini rivojlantirish

STEAM kompetensiyalarni shakllantirish asosida amalga oshadi.



2-rasm. Talabalarda STEAM kompetensiyalarni rivojlantirish kontsepsiyasi..

XXI asr pedagogi - nafaqat o'qituvchi, tarbiyachi, avalambor u – yuqori darajada tizimli fikrlovchi va izlanuvchi pedagogdir. Vaholanki shu kungacha respublikamizda tizimli tahlil qilishni biladigan, tizimli fikrlash qobiliyatiga ega mutaxassislar tayyorlash muammosi etarli darajada hal bo'lgani yo'q. Ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishda dunyo xamjamiyati STEAM ta'lim tizimini tadbqiq etish eng samarali echim sanaladi.

"STEAM yondashuvga asoslangan ta'lim" - bu o'qituvchining uslubiy yo'nalishi bo'lib, u o'quvchining muhandislik va dizayn tafakkurini shakllantirish uchun olingan bilimlarni amalda qo'llash bilan bolaning o'quv faoliyatida fizika, matematika va tabiiy fanlarni uzviyligini ta'minlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, STEAM ta'limning quyidagi tamoyillarini tahlil qilish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha amaliy faoliyat olib borish mumkin. Pedagogik ta'lim klasteri sharoitida tabiiy fanlarni o'qitishda, jumladan STEAM sohasi fanlarini o'qitish o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi va ular ta'limning STEAM tamoyillari bilan birga chambarchas uzviylik hosil etadi. STEAM yondashuvda pedagogik ta'lim klasterining asosiy maqsadi talabalarga murakkab muammolarni hal qilish va kelajakda innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam berishdir.

Faoliyatning majburiy natijaviylik tamoyili. STEAM darslar yakunida haqiqiy mahsulotlarning prototiplarini yaratish zaruriy shartdir.

Hamkorlikda ishlash tamoyili. STEAM darslarida o'qituvchi va o'quvchilarning hamda o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi hamkorlikda fanlararo uzviylikda ishlash faoliyatini tashkil qiladi.

Ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyili. Yakka holda yoki guruhli shaklda o'quv faoliyatini tashkil qilish orqali o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi

O'ziga xoslik tamoyili. STEAM mashg'ulotlarida o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilan individual tarzda yondashuvning amalga oshishi kuzatiladi.

3-rasm. STEAM tamoyillarning tadrijiy rivoji.

STEAM texnologiyalari asosida fanlararo integratsiyani ta'minlash, o'quvchilarning tabiiy savodxonligini, texnologik va muhandislik kompetentligini, matematik savodxonlik va san'at sohasida dizayn tafakkurini shakllantirishda loyiha ishlari yetakchi sanaladi.

Ilmiy tadqiqot ishi davomida "STEAM ta'limi sharoitida loyihalash texnologiyalari asosida o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish" mavzusida loyiha topshirig'i tajribada "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyiliga binoan sinovdan o'tkazildi. Loyihalash texnologiyasida foydalaniladigan "Ta'sir-tasavvur-ijod-ulash" metodi o'quvchilar bilish faoliyatini shakllantirishda eng samarali metod sanaladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning biologiyani STEAM-yondashuv asosida o'qitishida o'quvchilarda ilk tadqiqotchilik ko'nikmalari shakllanib boradi. Bunda tadqiqotchilikka asoslangan STEAM-texnologiya asosida tuzilgan mavzular D.Kolb modeli asosida shakllantiriladi. Bilimlarni amaliyot orqali o'zlashtirishga qaratilgan taksonomiya, kerakli kompetensiyalarni tezda shakllantirishga yordam beradigan o'quv modeli sanaladi. Bu modelning asosiy g'oya shundaki, bilimlarni o'rganish doimiy amaliyot natijasida shakllanadi.

Devid Kolb sifatli mashg'ulotlar amaliyot bilan bog'liq va to'rt bosqichdan iborat deb hisoblaydi.

1. Yangi tajriba. Bu tajribada biz avval egallagan bilimlarimizni sinab ko'ramiz va ularni ish bermasligi tasdiqlanadi.

2. Refleksiya. Tajribani to'g'ri amalga oshirish uchun qanday harakat qilishni tushunishga harakat qilamiz va yangi echimlar ijod qilina boshlanadi.


